

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablARI DARS JARAYONLARIDA
DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Xoldorova Mahliyo Ibroximjon qizi

*Namangan Davlat universiteti Pedagogika - psixologiya fakulteti Ta'lismenejmenti
kafedrasiga Ta'lismuassasalarini boshqaruv 1 bosqich magistratura talabasi.*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6467930>

Annontatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lismaktablari dars jarayonlarida didaktik vositalardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Dars, ta'lism, didaktika, axborot, samara, multimedia, zamonaviy texnologiya.

Bugungi kunda butun dunyoda axborot texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Shubhasiz, ta'lismarajida yangi axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish zarurdir. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan harakterlanadi. Multmediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi AKT ni muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida ishlatish imkonini beradi.

Bugungi kunda barcha sohalar kabi o'quv jarayonini ham kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Bu esa kompyuter va axborot texnologiyalarining imkoniyatlardan foydalanish barcha masalalarning yechimini hal qiladi, ya'ni axborotlarni uzatish va qayta ishlash- bu bilim, malaka va ko'nikmalarni to'liq shakllantirishni kafolatlaydi degani emas, chunki bularning barchasi faqatgina o'qitishning samarali qo'shimcha vositalardan biri bo'lib hisoblanadi xolos.

Ana shuning uchun ham zamonaviy axborot-texnologiyalardan ta'lismizida foydalanish quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiri-ladi:

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'rganish ob'ekti sifatida, ya'ni tala-balar bilim olish jarayonida yangi axborot texnologiyalar, shu jumladan kompyuter, multtimediya, masofadan o'qitish, Internet texnologiyalari va ularning tarkibiy qismlari hamda foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar;

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida, ya'ni za-monoviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida talabalarga bilim be-riladi, ya'ni umumta'lismarajida hamda mutaxassislik fanlarini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashhg'ulotlari

kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vosita-lari asosida tashkil etiladi, shu bilan birga fanlararo integratsiya amalga oshiriladi;

- ta'lism jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni ta'lism muassasasi-ning o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari faoliyati sama-radorligini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida ax-borotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish hamda uni amaliyotga jalg etish.

Ta'lism sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lism tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lism - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoxda. Bu esa ta'lism jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lism tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin. Ta'lism tizimi sifati va samaradorligini oshirishning yana bir asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalg etishdan iborat bo'ladi.

Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi o'quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroti va harakati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lism tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lism tizimida multimediali o'quv kurslaridan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasjon animasiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi.

Ta'lrim tizimida foydalaniladigan barcha multimediali o'quv kurslari amaliy tadbiqdan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Multimediali o'quv kurslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Ular faqatgina misol va masalalar yechish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonidagina emas, balki butun o'quv jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ta'lrim tizimida yaratilayotgan multimedia o'quv kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri, shu mavzuni o'rganishning ma'lum bir nozik jihatlari bilan aniqlanadi, ular esa o'z navbatida katta sondagi ko'rgazmali materiallarni talab qiladi, chunki ularning ishtirokisiz jonli dunyoning turli tumanligini, uni qurishni zarurligini, biologik, ximik va fizika jarayonlarning hosil bo'lish mexanizmini va rivojlanishini to'liq namoyish qilib bo'lmaydi.

Ta'lrim tizimi uchun multimediali o'quv kurslarini yaratishda shu sohaning asosiy didaktik masalalaridan biri – o'qitishni modellashtirish va tasavvurlash obyektlariga ta'sir qilishning umumiyligi metodlari muhim o'rnlardan birini egallaydi. Tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy tajribalar ko'paya borgan sari, ta'lrim jarayonida beriladigan bilimlar mazmunining xarakteri va doirasi ham o'zgaradi. Shunday qilib, ma'lum dasturga asoslangan, ma'lum maqsadga qaratilgan maxsus ijtimoiy dorilfunun-maktab paydo bo'ladi. Endi esa maktabdagagi faoliyat turi, uni amalga oshirish usuli va vositalarini asoslab berish zaruriyati paydo bo'lgan. Shunday qilib didaktika fani yuzaga keladi. Didaktika (grekcha didasko – o'qitaman) ta'lrim va ma'lumot haqidagi fandir. Insonning tarbiyasi rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida ta'lrim va ma'lumot muhim ahaiyatga ega.

Ma'lumot-bu egallagan, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, hosil qilingan dunyoqarashlar majmui. Ta'lrim-o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilgan, ularning bilish qobiliyatlarini o'stiradigan va dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lrim va ma'lumot bir-biri bilan mustahkam bog'liq. Ma'lumot bu ta'lrimning natijasi, ta'lrim esa ma'lumot olishning asosiy yo'lidir.

Didaktika fani ta'lrim va ma'lumotning muhim muammolarini o'rganish bilan birga «kimni o'qitish kerak», «nimaga o'rgatish kerak», «qanday o'qitish kerak» kabi savollarga ham javob bo'ladi. Ta'lrim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustaxkam bog'lik xolda bir sistemani tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lrim oldida turgan asosiy maqsadlarni xal etishga o'z hissasini ko'shadi. Ta'lrim tizimi isloq qilinayotgan xozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga mustaxkam bilim berish, ularni erkin,

mustakil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lif tamoyillarining moxiyatini chukur anglash va xayotga tadbiq etish muxim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy harakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'nggi yutuk va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, o'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lif jarayonida o'quvchi-talabalarni xozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniksa talaba yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga karatilgan.

Ilmiylik ta'lifning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'kuv predmeti o'rtasida hamkorlik o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'lifning hamma bosqichlarida ilmiy izoxlardan foydalanmoq lozim.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'lifning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lif-tarbiya soxasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro boglikligiga asoslanadi. Shundagina o'kuvchi-talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub moxiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lif jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmok lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'lifdagagi onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'prok bilishga intilish, mustakil fikrlash va xulosalar chikarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'kitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, dikkatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, o'quvchi-talabaning yoshi va bilim darajasiga muvofiklashgan bo'lishi, hamda ulardan foydalanishning samarali yo'll va vositalarini qo'llash va ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rustamov, B. (2025). TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(2), 50-55.

2. Nurali o'g'li, B. J. (2025). TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 62(5), 3-11.

3. Melibaeva, N. (2025). TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 96-101.
4. Olimjon o'g'li, O. S., & Xotamov, K. (2024). TIJORAT BANKLARIDA NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(25), 92-96.
5. Zubaydullayeva, Z., & Kaxarova, D. (2024). O 'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o 'rni. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(5).
6. Xudayarova, X. (2024). Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo 'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(4).
7. Isroiljonov, S., & Tadjibaeva, D. R. (2021). Study of the energy potential of the heart of college students through the energy potential of the heart. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1083-1088.
8. Таджибаева, Д. Р. (2023). СРАВНЕНИЕ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА И ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН КЫРГЫЗСТАНА. Universum: химия и биология, (12-1 (114)), 62-66.
9. Таджибаева, Д. (2024). Методы исследования генетики человека. Общество и инновации, 5(8/S), 118-122.
10. Tadjibayeva, D. (2024). INSON TANASINING JISMONIY HOLAT DARAJASI. TAMADDUN NURI JURNALI, 8(59), 305-307.
11. Уринова, Н. М., & Хусеинова, С. Б. (2021). Теоретико-практическая подготовка будущих учителей гуманитарного профиля к социально ориентированной воспитательной работе. Бюллетень науки и практики, 7(5), 434-440.
12. Botirovna, X. S. (2023). "TARBIYA" FANI ORQALI TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI-O'QUVCHILAR HAMKORLIK FAOLIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 567-569.
13. Khamidovna, P. O. (2021). Students develop communication culture pedagogical-psychological factors. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
14. Khamidovna, P. O. (2023). Communication Culture of Individuals. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(4), 25-28.
15. Khamidovna, P. O. (2021). Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity. Journal of Academic Research ISSN, 2181(2020), 26.

16. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Bakhtiyorovna, Y. B. (2021). THE ROLE OF COMMUNICATION AND INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
17. Gulomov, K. K. (2023). PEDIATRIC STROKE DIAGNOSIS: CURRENT CHALLENGES AND FUTURE PERSPECTIVES. Экономика и социум, (12 (115)-1), 256-260.
18. Ogli, N. A. K., & Qahhorali, G. (2024). IMPROVEMENT OF SURGICAL TACTICS AND TREATMENT OF COMBINED INJURIES IN CHILDREN. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(5-2), 17-21.
19. Abdumuminov, B. R., Eminov, R. I., & Gulomov, K. K. (2023). UNDERSTANDING FETAL CIRCULATION AND THE TRANSITION TO POSTNATAL CIRCULATION: SHUNTS, PLACENTA, AND CONGENITAL HEART DEFECTS. Экономика и социум, (6-1 (109)), 14-21.
20. Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR UROLITHIASIS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).
21. Ugli, G. K. K. (2025, February). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN KIDS: EEG & MRI TRENDS PRE-AND POST-2023. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 28-30).
22. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2025). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE, AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 419-430.
23. Ugli, G. K. K. (2025). CHARACTERISTIC EEG PATTERNS IN SSPE AND THEIR CORRELATION WITH CLINICAL STAGES. ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES, 2(2), 26-30.
24. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2024). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(12), 16-27.
25. Kholmatov, S., Madaminov, S., Zokirjonov, D., & Sobirova, D. (2024). A COMPREHENSIVE REVIEW OF RADIOTHERAPY AND CHEMOTHERAPY-INDUCED MORPHOLOGICAL SIDE EFFECTS IN BREAST CANCER TREATMENT:

STRATEGIES FOR MANAGEMENT AND MITIGATION. Science and innovation, 3(D6), 11-24.

26.Zokirjonov, D., & Alimov, F. (2024). IMPORTANCE OF VITAMIN D LEVEL ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, SPORT PERFORMANCE AND PREVENT OF TRAUMA. Science and innovation, 3(D5), 65-75.

27.EVALUATION OF ANTHROPOMETRIC CHANGES IN DIFFERENT PATHOLOGIES OF THYROID GLAND HORMONE FUNCTIONS

28.Nishonov, Y., Madaminov, S., Abdulhakimov, A., Zokirjonov, D., & Komilov, S. (2023). ASSESSMENT OF ANTHROPOMETRIC CHANGES IN DIFFERENT THYROID GLAND DISEASES. Science and innovation, 2(D3), 73-79.